

O'ZBEKİSTON

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

2021 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

# O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rincbosarlar:** Zaynobiddin Abdirashidov  
Qosimboy Ma'murov

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybullha Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Anvar Sayfullayev.

### Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

<b>Editor-in-Chief:</b>	Shuhrat Sirojiddinov
<b>Deputy Editors in Chief:</b>	Zaynabiddin Abdirashidov Kasimbay Mamurov
<b>Executive secretary:</b>	Ozoda Tajibaeva

### **Editorial board**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybullha Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev, Anvar Sayfullaev.

### **Editorial Committee**

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## **MUNDARIJA**

### **Lingvistika**

#### **Muhittin Gümüş**

Altın Köprü Türkçe Öğretimi (B2 Ve C1) Ders Kitaplarının Avrupa  
Dilleri Ortak Çerçeve Programının Dil Düzeyi Göstergelerine  
Uygunluğu Açısından Değerlendirilmesi.....6

#### **Zamira Hamidova**

Usmonli Imperiyasi davrida tilni rejalashtirish va milliy o'zlikning  
barpo etilishi.....38

### **Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik**

#### **Aidaxon Bumatova**

Kichik lirik janrlar tarjimasidagi ba'zi muammolar.....51

### **Din. Falsafa. Ilohiyot**

#### **Komiljon Rahimov**

Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va  
qarashlari: G'ijduvoniya qaytish va Xojagon-naqshbandiya  
ta'limotining takomillashtirilishi.....65

### **Fan. Ta'lim. Metodika**

#### **Gulchehra Izbullayeva**

Didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik meros.....85

#### **Fazilat Sattorova**

Lingvistik kompetensianing ingliz tilini xorijiy til sifatida  
o'qitishdagi ahamiyati.....105

## **CONTENT**

### **Linguistics**

#### **Muhittin Gumush**

Evaluation of Altın Bridge Turkish Teaching (B2 and C1) Textbooks  
in Terms of Compliance with the Language Level Indicators of the  
Common European Framework of Reference for Languages.....6

#### **Zamira Hamidova**

Language planning and national identity during the  
Ottoman Empire.....38

### **Literature. Translation studies**

#### **Aidakhon Bumatova**

Problems in the Translation of Smaller Lyric Genres.....51

### **Religion. Philosophy. Theology**

#### **Komiljon Rahimov**

Hoja Bahouddin Nakshbandi, his Life, Activities and Views:  
Return to Gijduvani and Improvemen of Khojagon-  
Nakshbandiya's Doctrine.....65

### **Science. Education. Methodology**

#### **Gulchehra Izbullaeva**

Culture, school and pedagogical heritage in didactic works.....85

#### **Fazilat Sattorova**

The Importance of Linguistic Competence  
in Teaching English as a Foreign Language.....105

**DIN. FALSAFA. ILOHIYOT  
RELIGION. PHILOSOPHY. THEOLOGY**

# Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va qarashlari: G'ijduvoniya qaytish va Xojagon-naqshbandiya ta'limotining takomillashtirilishi

Komiljon Rahimov<sup>1</sup>

## **Abstrakt**

Xoja Bahouddin Naqshband (718/1318-791/1389) XII asrda Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (taxm. 496/1103-575/1179) tomonidan asos solingen tariqatni takomillashtirib, nufuzli tariqatlardan biriga aylantirdi. Xoja Bahouddin Naqshband G'ijduvoni tomonidan joriy etilgan, ammo zikri jahriyi ma'qul topgan keyingi pirlar tomonidan bekor qilingan zikri xafiyi qaytadan joriy etdi, Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoni tomonidan ishlab chiqilgan sakkiz *rashhaga* uchta yangi rashha (*vuqufi zamoni*, *vuqufi adadi*, *vuqufi qalbi*) qo'shib, ularning sonini o'n bittaga yetkazdi. Bahouddin Naqshband tarkidunyochilik va go'shanishinlikni inkor etarkan, odamlar bilan faol munosabatda bo'lish va kasb-kor bilan shug'ullanish, shu bilan bir paytda bir lahma bo'lsa-da xudoni esdan chiqarmaslikni targ'ib etdi.

Ushbu maqolada tarixiy manbalar va tadqiqotlarga tayangan holda Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va ta'limoti to'g'risida nisbatan aniqroq ma'lumotlar berishga hamda bu boradagi yangicha xulosalar bayon etishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** *Xoja Bahouddin Naqshband, tasavvuf, xojagon-naqshbandiya tariqati, xojagon-naqshbandiya ta'limoti, yettinchi pir, zikri xafiy, zikri jahriy, rashhalar, tarkidunyochilik, kasb-kor bilan shug'ullanish, ijtimoiy faol so'fiylik.*

---

<sup>1</sup> Rahimov Komiljon Rahmatovich – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti.

**E-pochta:** kom\_rah@mail.ru

**ORCID ID:** 0000-0003-0656-0546

**Iqtibos uchun:** Rahimov, K. R. 2021. "Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va qarashlari: G'ijduvoniya qaytish va Xojagon-naqshbandiya ta'limotining takomillashtirilishi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 65—84.

## Kirish

Halgacha “xojagon” va “naqshbandiya” nomlari bilan mashhur bo’lgan tariqatning vujudga kelish vaqt (XII yoki XIV asr), asoschisi (Xoja Abdulkoliq G’ijduvoniy yoki Xoja Bahouddin Naqshband) va aniq nomi (xojagon yoki naqshbandiya) borasida yagona qarashning mavjud emasligi yoki ko’pchilik hollarda «naqshbandiya» deb ataluvchi ushbu tariqatning asosan Xoja Bahouddin Naqshband nomi bilan bog’lanishi mazkur tariqatning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixini o’rganishga keng, chuqur, kompleks va tizimli yondashuvning mavjud emaslididan kelib chiqqan holatdir. Holbuki, ushbu tariqat XII asrda Xoja Abdulkoliq G’ijduvoniy (taxm. 496/1103-575/1179) tomonidan asos solingan, oradan ikki asrcha vaqt o’tib esa uning izdoshi Xoja Bahouddin Naqshband (718/1318-791/1389) tomonidan takomillashtirilib, nufuzli tariqatlardan biriga aylantirilgan. Xojagon-naqshbandiya manbalari ham aynan Xoja Abdulkoliq G’ijduvoniyning ushbu tariqat asoschisi ekanligini ta’kidlaydilar. Jumladan, «Rashahot ayn al-hayot» muallifi G’ijduvoniyni «xojagon zanjirining bosh halqasi», «xojagon tabaqasining asoschisi va azizon silsilasining boshlovchisi» deb tanishtirar ekan, uning hayot tarzi barchaga o’rnak va barcha guruqlar uchun maqbul ekanligini ma’lum qiladi [Koshifiy 1977, 34-35].

Xoja Abdulkoliq G’ijduvoniy, umuman, xojagon-naqshbandiya tariqati, jumladan, uning birinchi – *xojagoniya* bosqichi asoschisi sifatida ushbu tariqatning shariat va sunnatga tayanish, tavba va irodat bilan boshlanuvchi sayru suluk maqomlarini bosib o’tish, zikri xafiy hamda sakkiz rashha (*hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan, xilvat dar anjuman, yodkard, bozgasht, nigohdosht, yoddosht*)-dan iborat bo’lgan ilk asoslarini shakllantirib berdi [G’ijduvoniy (a) 2003, 97-98; G’ijduvoniy (b) 2003, 112-121; Koshifiy (a) 1977, 11-38]. Undan keyin tariqat rahbarligini o’z zimmasiga olgan Xoja Muhammad Orif Revgariy (taxm. 560/1165-660/1262), Xoja Mahmud Anjirfag’naviy (taxm. VII/XIII a. bosh.-685/1286), Xoja Ali Romitaniy (taxm. 591/1195-721/1321), Xoja Muhammad Bobo Samosiy (taxm. VII/XIII a. o’rt.-736/1335) va Sayyid Amir Kulollar (taxm. 680/1281-772/1370) ham G’ijduvoniy ta’limotining asosiy qismini davom ettirgan bo’lsalar-da, Xoja Mahmud Anjirfag’naviy davridan boshlab zikri xafiy o’rnini zikri jahriy egalladi. Xojagon-naqshbandiya tariqatidagi bu amaliyot Xoja Bahouddin Naqshband davriga qadar davom etdi [Абул Мухсин 1993, 54]. Naqshband faoliyati bilan xojagon-naqshbandiya tariqatining birinchi –

*Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va qarashlari: G'ijduvoniyga qaytish va Xojagon-naqshbandiya ta'lomitining takomillashtirilishi*

---

xojagoniya bosqichi poyoniga yetib, ikkinchi – naqshbandiya bosqichi boshlandi.

Xoja Bahouddin Naqshbandning tariqat rivoji va takomiliga qo'shgan katta hissasi shundan iborat bo'ldiki, u birinchi navbatda *zikri xafiyni* qaytadan joriy etdi [Абул Муҳсин 1993, 54; Koshifiy (b) 1977, 97-98], Yusuf Hamadoniy va Abdulkoliq G'ijduvoniy tomonidan ishlab chiqilgan sakkiz *rashhaga* uchta yangi rashha (*vuqufi zamoni*, *vuqufi adadi*, *vuqufi qalbiy*) qo'shib, ularning sonini o'n bittaga yetkazdi [Абул Муҳсин 1993, 84-86; Koshifiy 1977, 47-50]. Bahouddin Naqshband tarkidunyochnilik va go'shanishinlikni inkor etarkan, odamlar bilan faol munosabatda bo'lish va kasb-kor bilan shug'ullanish, shu bilan bir paytda bir lahma bo'lsa-da xudoni esdan chiqarmaslikni targ'ib etdi [Абул Муҳсин 1993, 77; Jomiy 2003, 391; Навоий 2001, 27]. Xojagon-naqshbandiya tariqati Xoja Bahouddin Naqshbanddan keyingi pirlar davrida avval butun Markaziy Osiyoga, keyinroq ko'plab xorijiy o'lkalarga yoyildi.

Shu paytga qadar Xoja Bahouddin Naqshband hayoti, faoliyati va ta'lomi to'g'risida ko'plab tadqiqotlar amalga oshgan, ko'plab kitoblar va maqolalar chop etilgan bo'lsa-da, haligacha xojagon-naqshbandiya tariqati tarixida katta burilish yasagan ushbu shaxsning tarjimayi holida aniqlik kiritilmagan o'rinalar mavjud, uning so'fiyona qarashlari va ta'lomitining barcha jihatlari ham tadqiqotchilar e'tiboriga tushgani yo'q.

Biz shundan kelib chiqib, ushbu maqolamizda bizgacha yetib kelgan tarixiy manbalardagi ma'lumotlar va hozirgi zamonda amalga oshirilgan tadqiqotlarga tayangan holda Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va ta'lomi to'g'risida nisbatan aniq ma'lumotlar berishga hamda bu boradagi o'z xulosalarimizni bayon etishga harakat qildik.

### **Xoja Bahouddin Naqshband hayoti, faoliyati**

Xojagon silsilasining yettinchi piri, xojagon-naqshbandiya tariqatinining ikkinchi – *naqshbandiya* bosqichi boshlovchisi, «Xojayı Buzurg» («Buyuk Xoja»), «Bahouddini Balogardon» («Baloni qaytaruvchi Bahouddin»), «Shoh Naqshband» nomlari bilan mashhur bo'lgan Xoja Bahouddin Muhammad ibn Muhammad Naqshband Buxoriy hijriy-qamariy 718-yilning muharram [Muborak Buxoriy 1992, 67; Абул Муҳсин 1993, 21; Koshifiy (b) 1977, 95] – milodiy 1318-yilning mart oyida Buxoro atrofidagi Qasri Hinduvon<sup>1</sup> qishlog'ida kimxob to'qish va matoga gul solish – *naqshbandlik*

---

<sup>1</sup> Hozirgi Buxoro viloyatining Kogon tumanida joylashgan Qasri Orifon qishlog'i.

bilan shug'ullanuvchi hunarmand [Doroshukuh 1862, 78] oilasida dunyoga kelgan.

Ayrim manbalarda Xoja Bahouddinning nasabi ota tomonidan Payg'ambar (s.a.v.)ga borib taqalgaligi ta'kidlangan bo'lib, uning ajdodlari shajarasи quyidagicha keltirilgan: Bahouddin Naqshband ibn Sayyid Muhammad Buxoriy ibn Sayyid Jaloliddin ibn Sayyid Burhoniddin ibn Sayyid Abdulloh ibn Sayyid Zaynulobidin ibn Sayyid Qosim ibn Sayyid Sha'bon ibn Sayyid Burhoniddin ibn (Sayyid Qilich ibn) Sayyid Mahmud ibn Sayyid Buloq (yoki Is'hoq, Iloq) ibn Sayyid Taqiy So'fiy Xilvatiy ibn Sayyid Faxriddin (yoki Muhyiddin) ibn Sayyid Ali Akbar ibn Imom Hasan Askariy ibn Imom Ali Taqiy ibn Imom Muhammad Taqiy ibn Muso Rizo ibn Imom Muso Kozim ibn Imom Ja'far Sodiq [To'ra Buxoriy 1910, 54; Muhammad Fazlulloh 2014, 67; Lohuriy 1894, 549]. "Tuhfat uz-zoyirin" muallifi Bahouddinning onasi birinchi xalifa Abu Bakr Siddiq naslidan ekanligini yozadi [To'ra Buxoriy 1910, 54].

Xoja Bahouddin Naqshbandning ota tomonidan bobosi Jaloliddin so'fiylik yo'liga kirgan muridlardan [Muborak Buxoriy 1894, 79; Мұхаммад Боқыр 1993, 23], buvisi esa o'z davrining o'qimishli va taqvodor ayollaridan bo'lgan [Абул Мұхсин 1993, 25]. Bahouddinning hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi otasi ma'lum muddat Chig'atoy ulusidan bo'lgan Movarounnahr hokimi Bayonqulixon (vaf. 1358) qo'shinida harbiy xizmatda bo'lgan, qarigan chog'ida esa tariqatga kirib, endilikda ustoz martabasida bo'lgan o'g'liga ergashgan.

Ayrim mualliflar Xoja Bahouddin yoshligidan otasi bilan birga *naqshbandlik* (matoga gul bosish) hunari bilan mashg'ul bo'lganligi sababli «Naqshband» laqabini olganligini ta'kidlashadi [Навоий 2001, 15; Doroshukuh 1862, 78; Mas'ud Buxoriy 26<sup>b</sup>]. Biroq keyingi davrlarda yaratilgan manbalarda yozilishicha, Bahouddinning ko'ngil zikri bilan uzlusiz ravishda shug'ullanish natijasida uning qalbiga xudoning ismi naqshlanib qolganligi unga shu laqabni berishlariga sabab bo'lgan. Ushbu tariqat ulug'laridan biri bu to'g'rida shunday degan:

*Ey birodar, dar tariqi naqshband  
Zikri haqro dar dili xud naqsh band.*

*Mazmuni:* Ey birodar, naqshband tariqatida Haq zikrini o'z qalbingga naqshlagin [Taroyiq ul-haqoyiq 351]. Bundan tashqari u din yo'lidagi xizmatlari tufayli «Bahouddin» («Dinning nuri») unvonini olgan.

Xojagon-naqshbandiya tariqati manbalarida mazkur tariqatning boshqa ayrim pirlari, jumladan, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniya va Sayyid Amir Kulol kabi Bahouddinning ham dunyoga kelishi va ulg'ayg'ach buyuk tasavvuf shayxi bo'lib yetishishi oldindan bashorat qilinganligi ta'kidlanadi. Ushbu manbalarda keltirilishicha, xojagon silsilasi piri Xoja Muhammad Bobo Samosiy hali Bahouddin dunyoga kelmasidan turib bir necha bor, ko'rinishidan muridlari bilan uchrashish maqsadida, Qasri Hinduvon qishlog'iga tashrif buyurarkan, ushbu tashriflar chog'ida bir necha marta: «Bu tuproqdan [yaqin keljakda dunyoga keladigan] bir arning hidi kelmoqda, tez orada Qasri Hinduvon Qasri Orifonga<sup>1</sup> aylanadi», deydi. Bahouddin tug'ilganidan keyin – hali uch kunlik chaqaloq bo'lgan paytda – bobosi uni Qasri Hinduvonga kelgan Xoja Muhammad Bobo Samosiy huzuriga olib borganida xojagon tariqati piri uni farzandikka qabul qilib, uning keljakda «zamona peshvosi» bo'lib yetishishini bashorat qiladi. Bobo Samosiy o'shanda Bahouddinning tarbiyasini, ya'ni uni sayru suluk yo'lida tarbiyalashni xalifasi Sayyid Amir Kulolga topshiradi [Anis at-tolibin 1992, 79-80; Абул Мұхсин 1993, 23; Jomiy 2003, 386; Навоий 2001, 256-258; Koshifiy 1977, 74].

Shu bilan birgalikda, Bahouddinning keyinchalik so'fiylik yo'lini tanlashiga uning oilasidagi muhit, aniqrog'i, uning xojagon silsilasi piri Xoja Muhammad Bobo Samosiy muridi bo'lgan [Anis at-tolibin 1992, 79; Абул Мұхсин 1993, 23] bobosi muhim o'rin tutgan. Bahouddin, ehtimol, ana shu bobosining sa'y-harakatlari bilan boshlang'ich ta'limdi o'zi tug'ilib-o'sgan joyda olib, yetti yoshidayoq Qur'oni karimni to'liq yodlaydi.

Bahouddinning amalda so'fiylik yo'liga kirishidan oldingi ana shu ilm o'rganishi uning o'n sakkiz yoshiga qadar davom etgan yoxud u hech bo'limganda o'n sakkiz yoshidan so'nggina bevosita so'fiylik yo'liga kirgan ko'rindi. Chunki manbalar Bahouddinning Bobo Samosiy bilan uni uch kunlik chaqaloq paytida farzandlikka qabul qilganidan keyingi ilk uchrashuvini uning o'n sakkiz yoshligida yuz bergenligini eslatishadi. Mazkur manbalarda keltirilishicha, o'n sakkiz yoshli Bahouddin uylanishidan oldin bobosining ko'rsatmasi bilan to'yga bosh-qosh bo'lishini so'rab Bobo Samosiyning oldiga boradi-da, uning uyida bir kechasi mehmon bo'lib, ertasi kuni birgalikda Qasri Orifonga qaytishadi. Bobo Samosiyning o'zi sovchilikka borib, ishni bitiradi. Bahouddin shu orada Bobo

---

<sup>1</sup> «Qasri Hinduvon» o'zbek tilida «Hindlar qasri», «Qasri Orifon» esa «Oriflar qasri» ma'nolarini beradi.

Samosiyning karomatlariiga guvoh bo'ladi: Bobo Samosiy uzoqdan turib Bahouddinning kechasi masjidda nima deb duo qilganini, yo'lda birga ketishayotganida uning xayolidan nimalar o'tayotganini biladi. Bularning barchasi Bahouddinning pirlar etagidan tutib, sayru suluk yo'lini bosib o'tishga bo'lgan ishtiyoqini yanada kuchaytiradi [Anis at-tolibin 1992, 81-83; Абул Мұхсин 1993, 24-25].

Bobo Samosiy vafotidan so'ng bobosi Bahouddinni Samarqandga olib borib, u yerdagi so'fiylar bilan uchrashadir, ularning suhbatlaridan bahramand etadi va duolarini oladi [Anis at-tolibin 1992, 83; Абул Мұхсин 1993, 25]. Manbalarda Bahouddin Samarqanddan Qasri Orifonga qaytganidan so'ng xojagon silsilasining to'rtinchı piri, «Xojayi Azizon» laqabi bilan mashhur bo'lgan Xoja Ali Romitaniyning so'fiylik kulohi uning qo'liga yetib kelgani, bu esa uning holini butunlay o'zgartirib yuborganligi ta'kidlanarkan, buning qanday amalga oshganligi, jumladan, bu kulohni kim va qanday qilib Bahouddinga yetkazgani to'g'risida hech narsa deyilmaydi [Anis at-tolibin 1992, 83; Абул Мұхсин 1993, 25]. E'tiborlisi shundaki, Bahouddinga uning kelajakda xojagon silsilasi piri bo'lishidan darak beruvchi ushbu tabarruk kuloh tegishi bilan bir paytda uning tariqatdagi kelgusi murshidi Sayyid Amir Kulol ham Xoja Muhammad Bobo Samosiy vasiyatiga ko'ra Bahouddinni sayru suluk yo'lida tarbiyalashni boshlash maqsadida Qasri Orifonga tashrif buyuradi [Anis at-tolibin 1992, 83; Абул Мұхсин 1993, 25].

Bahouddin Naqshband so'fiylik yo'liga kirgan chog'laridanoq xojagon tariqatini isloh qilish va takomillashtirishga, jumladan, tariqat asoschisi Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning xojagon silsilasining keyingi pirlari davrida ayrim o'zgarishlarga uchragan ta'limotini to'liq tiklashga ahd qilgan ko'rindi. Zero, manbalarda Bahouddinning, bir tomondan, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning ruhidan ta'lim olib, uning uvaysiy shogirdiga aylangani, ikkinchi tomondan esa yassaviya tariqati shayxlaridan ham so'fiylik ta'limini olganligi eslatiladi. Ushbu manbalarda keltirilishicha, Bahouddin Sayyid Amir Kulol huzurida bevosita so'fiylik ta'limini ola boshlashidan oldin tushida xojagon silsilasining Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniydan tortib Xoja Muhammad Samosiygacha bo'lgan pirlarining ruhlari bilan uchrashib, G'ijduvoniy ruhidan shariat va sunnatga qattiq amal qilish, bid'atdan qochish, Sayyid Amir Kulol huzurida tariqat odoblarini o'rganishga ko'rsatma oladi [Anis at-tolibin 1992, 89-90; Абул Мұхсин 1993, 29; Jomiy 2003, 390-391; Навоий 2001, 261-262]. Bahouddinning o'zidan naql qilingan qissalarga ko'ra u aynan ana shu tushida zikri xafiyni qo'llashga ko'rsatma olgan bo'lib, Sayyid

Amir Kulol ham unga zikrning ana shu turini o'rgatadi. Shunga ko'ra u o'z faoliyatida zikri aloniyani qo'llamaydi [Anis at-tolibin 1992, 93; Абул Муҳсин 1993, 31]. Bundan tashqari, u oxirigacha Sayyid Amir Kulolning muridi bo'lib qolgan va oxirida uning o'zidan *irshodgamuridlar tarbiyalash* va tariqat rahbarligini amalga oshirishga ruxsat olgan bo'lsa-da, hayotining turli davrlarida turk mashoyixlari – yassaviya tariqati shayxlari Xalil Ota (VIII/XIV a.) va Qusam Shayx (VIII/XIV a.), shuningdek, Sayyid Amir Kulolning boshqa bir xalifasi, xojagon tariqati shayxi Maylono Orif Deggaroniy (VIII/XIV a.) huzurida ham so'fiylik ta'lmini oladi.

Manbalarda Bahouddinning mazkur shayxlardan qachon va qanday ketma-ketlikda ta'lim olgani aniq ko'rsatilmagan. Ammo Bahouddinning Xalil Ota bilan uchrashuvi ancha oldinroq, ya'ni Sayyid Amir Kulol bir necha vaqt uning murshidligida sayru suluk bosqichlarini bosib o'tgan Bahouddinga ta'lim va sulukni *xojagoniya* yoki *yassaviya* tariqatlari shayxlaridan ma'qul kelgan birortasi huzurida davom ettirishga ruxsat berishidan [Абул Муҳсин 1993, 50; Jomiy 2003, 387; Навоий 2001, 258] oldin yoki, umuman, hali Bahouddin Sayyid Amir Kulol huzurida bevosita so'fiylik ta'lmini ola boshlashidan ilgari yuz bergen ko'rindi. Bahouddin tushida yassaviya tariqatining bir muncha ilgariroq yashab o'tgan boshqa bir shayxi – Hakim Ota laqabi bilan mashhur bo'lgan Sulaymon Boqirg'ony (1091-1186) ruhi tomonidan bashorat tarzida ma'lum qilingan [Anis at-tolibin 1992, 84; Абул Муҳсин 1993, 25] ushbu uchrashuvdan so'ng o'n ikki yil davomida uning xizmatida bo'lib, podshohlarga xizmat qilish odoblarini o'rganadi [Anis at-tolibin 1992, 84; Абул Муҳсин 1993, 25; Koshify (a) 1977, 97]. E'tiborni tortadigani shuki, manbalar Bahouddinning o'zidan naql qilgan holda, uning Xalil Sulton nomi bilan Movarounnahrda olti yil hukmronlik qilganini ta'kidlashadi [Anis at-tolibin 1992, 85; Абул Муҳсин 1993, 26]. Ayrim tadqiqotchilar so'fiylik manbalarida Xalil Ota yoki Xalil Sulton nomi bilan eslatilgan ushbu shaxsning 732/1332-747/1347-yillar Movarounnahrda hukmronlik qilgan Chig'atoj ulusi vakili Qozonxon (yoki Qozon Sulton) (yaf. 747/1347) ekanligini taxmin qilishadi [Кныш 2004, 251-252; Tosun 2007, 101]. Amerikalik tadqiqotchi Devin Di Uis shu o'rinda Qozonxonni so'fiylikka mayl bildirgan ilk mo'g'ul hukmdorlaridan biri sifatida eslatib o'tadi [Девин ДиУис 2001, 229]. Eronlik tadqiqotchi Abdulhusayn Zarrinko'b Bahouddinning ushbu hukmdor saroyida muhtasib yoki qozi lavozimida ishlagan bo'lishi mumkinligini taxmin qiladi [Zarrinko'b 2008, 209]. So'fiylik manbalarida Xalil Ota

yoki Xalil Sulton nomi bilan eslatiladigan bu shaxsning haqiqatdan ham Mavarounnahr hokimi Qozonxon bo'lganligini tasdiqlaydigan yana bir holat shundan iboratki, manbalarda ta'kidlanishicha, Xalil Sultonning hokimiyati barham topgach, Bahouddinning bu dunyoning ishlaridan ko'ngli soviydi-da, Buxoroga qaytib, Revartun qishlog'ida yashay boshlaydi [Anis at-tolibin 1992, 85; Абул Муҳсин 1993, 26]. «Anis at-tolibin» muallifi Bahouddinning *tavbasi* – g'oyibdan unga bir ovoz kelgach, bu dunyoning hoyu havaslaridan voz kechib, so'fiyona hayotni ixtiyor etishi ham xuddi shu davrda yuz bergenligini ta'kidlarkan [Anis at-tolibin 1992, 86], Bahouddinning tushida xojagon silsilasining o'tmish pirlari ruhlari bilan uchrashuvi va ulardan ko'rsatmalar olishi shundan keyin bo'lganligini ma'lum qiladi [Anis at-tolibin 1992, 87-93].

Bahouddin Sayyid Amir Kulol huzurida sayru suluk odoblari hamda zikr qoidalarini o'rganish bilan bir paytda ulamolar huzurida hadis ilmini o'rganishga kirishadi [Anis at-tolibin 1992, 93]. «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband»da uning hadis ilmidagi ustozlaridan biri – Mavlono Bahouddin Deggaroniyning nomi eslatiladi [Абул Муҳсин 1993, 41].

Sayyid Amir Kulol bir necha vaqt uning xizmatida bo'lib, sayru suluk bosqichlarini bosib o'tgan Bahouddin Naqshbandga endi *xojagoniya* yoki *yassaviya* tariqatlari shayxlaridan ma'qul kelgan birortasi huzurida ta'lim olishi va sulukda davom etishi mumkinligini aytadi [Абул Муҳсин 1993, 50; Jomiy 2003, 387; Навоий 2001, 258]. Shundan keyin Bahouddin Naqshband yetti yil davomida Mavlono Orif Deggaroniy huzurida riyozat va mujohadatga beriladi [Абул Муҳсин 1993, 50; Koshifiy (a) 1977, 97]. So'ngra Nasafga borib, bir necha oy davomida turk mashoyixlaridan yassaviya tariqati shayxlaridan yana biri bo'lmish Qusam Shayx huzurida tariqat va suluk borasidagi bilim va tajribalarini takomillashtiradi [Абул Муҳсин 1993, 51; Koshifiy (a) 1977, 97].

Xoja Bahouddin Naqshband turli o'lkalarga safarlar davomida ham boshqa so'fiylik tariqatlari ta'limotlari va tajribalarini o'rganishga harakat qilgan ko'rindi. U o'zining 772/1370 va 790/1388-yillarda amalga oshirgan Haj safarlar davomida Marv, Hirot, Saraxs, Mayxon, Mozandaron, Bag'dod kabi shaharlar va o'lkalarda bo'lib, Xoja Muayyad, Sayfiddin Abhariy, Zayniddin Abu Bakr Toybodi (vaf. 791/1389) kabi ulamolar va shayxlar bilan uchrashadi va qodiriya tariqatining asoschisi Shayx Abdulqodir Giloniyning (470/1077-561/1166) Bag'doddagi qabrinini ziyorat qiladi [Anis at-tolibin 1992, 118; Jomiy 2003, 393; Koshifiy (a)

1977, 97]. Bundan tashqari Bahouddin Naqshband Haj safarlarining birida Hirotda Kurtlar davlati (643/1244-783/1383) hukmdori Malik Muiziddin Husayn bin G'iyosiddin (732/1332-771/1369) bilan uchrashadi va Hirot ulamolarining ushbu hukmdor ishtirokida bo'lib o'tgan yig'inida qatnashadi [Anis at-tolibin 1992, 118-121; Абул Мұхсин 1993, 67-68; Koshifiy (a) 1977, 97].

### **Xojagon tariqati ta'limotini takomillashtirishda Bahouddin Naqshbandning xizmatlari**

Xojagon tariqati ta'limotini takomillashtirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Bahouddin Naqshband o'sha davrda hayot bo'lган shayxlarning tasavvuf va sayru suluk borasidagi qarashlari, nazariyasi va amaliyoti bilan birgalikda o'tmish davrlari so'fiylari ta'limotini ham chuqur o'rgangan ko'rindi. Manbalar Bahouddin Naqshbandning o'zidan naql qilgan holda, uning Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniyan dan ruhoni tarbiya olishdan tashqari, o'tmish so'fiylaridan Uvays Qaraniy (hijratdan 28 yil oldin/594-36/657) va Hakim Termiziy (205/820-320/932) ruhlariga *tavajjuh* orqali, ulardan ham ta'lim olganligini ta'kidlashadi [Anis at-tolibin 1992, 95-96; Абул Мұхсин 1993, 32-33]. Ularda keltirilishicha, mazkur *tavajjuh chog'ida* Bahouddinda Uvays Qaraniyga xos bo'lган *inqito'i tomm* (xudodan boshqa narsalardan butunlay uzilish) va *tajarrudi kull* (xudodan boshqa narsalardan uzilib, butunlay yolg'iz qolish) hamda Hakim Termiziyya xos bo'lган mutlaq sifatsizlik aks etgan [Anis at-tolibin 1992, 95; Абул Мұхсин 1993, 32]. E'tiborni tortadigani shuki, Bahouddin o'zini Hakim Termiziy ta'limotining davomchisi deb bilgan: u 789/1387-yili bo'lib o'tgan bir yig'inda yigirma ikki yildan buyon Hakim Termiziy tariqatida ekanligini aytadi [Anis at-tolibin 1992, 95; Абул Мұхсин 1993, 32].

Bahouddin Naqshband agiografiyasidan ham xojagon silsilasining oldingi pirlaridan Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniyi, Xoja Orif Revgariy va Xoja Ali Romitaniy, shuningdek, o'tmish davrlar so'fiylaridan Hakim Termiziyya bo'lGANI kabi Hazrat Xizr (a.s.) bilan uchrashuv sahnasi joy olgan. «Anis at-tolibin» va «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» mualliflarining yozishlaricha, Bahouddin Nasafda turgan Sayyid Amir Kulol huzuriga borayotganida otliq bir cho'pon ko'rinishidagi Xizr (a.s.) uning yo'lidan chiqadi. Ammo pirining oldiga shoshilayotgan, buning ustiga bu otliqning Xizr (a.s.) ekanligini bilmagan Bahouddin unga e'tibor bermay o'z yo'lida davom etadi [Anis at-tolibin 1992, 108; Абул Мұхсин 1993, 41-42]. E'tiborni tortadigan jihat shuki, ushbu qissada ketirilishicha,

o'shanda Hazrat Xizr (a.s.) Bahouuddinga turkiy tilda murojaat qiladi [Anis at-tolibin 1992, 108; Абул Мұхсин 1993, 41]. Bu esa, bir tomondan, o'sha davrda xojagon tariqatiga yassaviylik ta'limoti unsurlari kirib kela boshlaganligi, ikkinchi tomondan, Qashqadaryo diyori yassaviylik ta'limotining markazlaridan biriga aylana boshlaganligidan dalolat berishi mumkin.

Bahouddin Naqshband shu bilan birgalikda tariqatdagi piri va ustozi Sayyid Amir Kulolning vafotiga qadar uning muridi va izdoshi bo'lib qoldi. Xojagon-naqshbandiya tariqati manbalarida Bahouddin Naqshband va Sayyid Amir Kulol o'rtasidagi o'zaro munosabatlar to'g'risida ko'plab qissalar keltiriladi. Mazkur qissalarning birida Bahouddin majzublik chog'larida Sayyid Amir Kulol huzuriga borganda piri uni uch marta uydan haydab chiqqarganida ham ustoziga bo'lgan hurmati tufayli uning oldiga yana qaytib boravergani, uning bu ishtiyoqini ko'rgan piri uni o'ziga yaqin olgani [Anis at-tolibin 1992, 104-105; Абул Мұхсин 1993, 38-39], boshqa bir qissada esa Sayyid Amir Kulol uning Bahouddin Naqshbandga nisbatan bo'lgan e'tiboriga hasad qilgan ayrim muridlarga qarata Bahouddin Naqshbandni o'zining eng yaxshi xalifalaridan ekanligini ma'lum qilganligi [Абул Мұхсин 1993, 50] hikoya qilinadi.

Xojagon-naqshbandiya tariqati manbalarida Bahouddin Naqshbandning valiyligi va karomatlari to'g'risida ko'plab misollar keltirilgan. Aytishlaricha, Bahouddinning ilk karomati uning endigina to'rt yoshga kirgan go'daklik chog'ida yuz bergen bo'lib, o'shanda u uylaridagi sigirning yaqin orada peshonasi ola buzoq tug'ishini bashorat qiladi [Anis at-tolibin 1992, 80-81; Абул Мұхсин 1993, 23-24; Koshifiy (a) 1977, 95]. Mazkur manbalarda keltirilgan ko'plab hikoyatlarga ko'ra, u boshqalarning xayolidagi gaplarni o'qiy olish, uzoqdan turib boshqalarning qayerga borganliklarini bilish, g'oyibdan taom paydo qilish, qurg'oqchilik paytida ekinlarni sug'orish uchun g'oyibdan suv keltirish va shu kabi boshqa ko'plab g'ayritabiyy ishlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lgan [Абул Мұхсин 1993, 112, 113-114, 114-115, 119-120, 121]. U hatto bir marta – bir necha muridlar bilan pirlari Sayyid Amir Kulol huzuriga borishayotganida «sizga bo'lgan do'stlik yo'lida o'l desangiz o'lishga tayyorman», degan yo'ldoshiga «o'l», deganida haqiqatdan ham o'lib qoladi, so'ngra «tiril» degach esa qaytadan tiriladi [Абул Мұхсин 1993, 42-43; Matlab ut-tolibin 2012, 28]. Bundan tashqari ushbu manbalar Bahouddinning o'zidan naql qilgan holda uning bir necha bor fano va g'aybat holatiga tushganida ruhi to'rtinchisi osmongacha uchib borgani [Anis at-tolibin 1992, 93-94; Абул Мұхсин 1993,

31], ilgari yashab o'tgan mashhur so'fiylardan Boyazid Bistomiy (vaf. 262/875), Junayd Bag'dodiy (vaf. 297/909), Mansur Halloj (244/858-309/922) va Abu Bakr Shibliy (vaf. 334/945) darajalariga yetib, ulardan so'ng Muhammad (s.a.v.) borgohigacha borgani va ul hazratga ehtirom bajo keltirgani to'g'risida hikoya qiladi [Anis atlolibin 1992, 112; Абул Мұхсин 1993, 46].

Bahouddin Naqshband ham o'z pirlari kabi o'z mehnati bilan kun ko'rishni afzal bilib, kasb-kor bilan shug'ullangan. U dastlab otasi bilan birga kimxob to'qish va matoga gul bosish hunari bilan mashg'ul bo'lgan [Абул Мұхсин 1993, 25; Навоий 2001, 15; Doroshukuh 1862, 78], keyinchalik esa dehqonchilik qilib, arpa va mosh yetishtirgan [Абул Мұхсин 1993, 55].

Sayyid Amir Kulol vafotidan oldin Xoja Bahouddin Naqshbandga irshod – muridlar tarbiyalashga ijozat berarkan, tariqat rahbarligini unga topshirib, barcha muridlariga Xoja Bahouddin Naqshbandga ergashishni buyuradi [Абул Мұхсин 1993, 54; Koshifiy (a) 1977, 97-98].

Bahouddin Naqshbanddan Bibicha Xotun Kalon, Bibicha Robia Xotun va Bibicha Sarvar Xotun nomli uch qiz qolgan bo'lib, ularning barchasi Bahouddin Naqshband ta'lomi izdoshlariga turmushga chiqishgan. Jumladan, Bibicha Xotun Kalon Alouddin Attorning o'g'li Hasan Attorga, Bibicha Robiya Xotun Mavlono Fazlulloh Nayistoniyga, Bibicha Sarvar Xotun esa Abulkayr Turkistoniya turmushga chiqqan [Siddiqiy 2012, 29].

Xoja Bahouddin hijriy-qamariy 791-yilning 3-rabiulavvali – milodiy 1389-yilning 1-martida yetmish to'rt yoshida olamdan ko'z yumadi va tug'ilib o'sgan qishlog'i Qasri Orifonda tuproqqa topshiriladi [Jomiy 2003, 394; Navoiy 2001, 265; Koshifiy (a) 1977, 100; Doroshukuh 1862, 79].

Xoja Bahouddin Naqshband ko'pgina shogirdlar yetishtirgan bo'lib, Xoja Alouddin Attor (vaf. 802/1400), Xoja Muhammad Porso (749/1348-822/1420), Xoja Ya'qub Charxiy (vaf. 851/1447) va Xoja Alouddin G'ijduvoniy (vaf. 852/1448) uning eng mashhur xalifalari jumlasiga kirishadi. «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» va «Rashahot ayn al-hayot» asarlarida keltirilishicha, Xoja Bahouddin Naqshband vafotidan oldin Xoja Muhammad Porsoga tariqat rahbarligini topshirib, boshqa izdoshlarini unga bo'ysunishga va ergashishga chaqiradi [Абул Мұхсин 1993, 44-45; Koshifiy (a) 1977, 100].

Manbalarda Xoja Bahouddin Naqshbandning biror bir asar yozganligi qayd etilmagan bo'lsa-da, uning muridlari va

izdoshlari uning turli o'rirlarda tasavvuf to'g'risida, jumladan, sayru suluk bosqichlari, tariqat odoblari hamda tasavvufning asosiy tushunchalari borasida aytgan gaplarini yozib borib, keyinchalik bir necha to'plamlarda aks ettirishgan. Ular quyidagilardan iborat:

1. «**Qudsya**» («Qudsiy<sup>1</sup> so'zlar») – Bahouddin Naqshbandning turli yig'inlar va joylarda aytgan qudsiy so'zlari va qilgani ma'ruzalaridan iborat bo'lib, uning muridi Xoja Muhammad Porso tomonidan yozib borilgan va Bahouddinning vafotidan so'ng muridlarining xohishiga ko'ra to'planib, kitob holiga keltirilgan.

2. «**Avrod ul-bahoiya**» («Bahouddin virdlari»<sup>2</sup>) – rivoyatlarga ko'ra, Bahouddin tushida Hazrat Rasululloh (s.a.v.)dan o'rgangan va keyinchalik uning muridlaridan Hamza ibn Shamshod tomonidan alifbo tartibida sharhlanib, kitob holiga keltirilgan virdlar.

3. «**Avrodi sag'ir**» («Qisqa virdlar») – Bahouddin Naqshband tomonidan aytilgan qisqa virdlar to'plami.

4. «**Voridot**» («Ko'ngildan o'tgan o'ylar») – beixtiyor holda xudo tomonidan ko'ngilga solingen o'ylar to'g'risida.

5. «**Dalil ul-oshiqin**» («Oshiqlar dalili») – xudoga ishq yo'li bo'lgan suluk va bu yo'lga kirgan soliklar to'g'risidagi asar.

6. «**Hayotnama**» – inson hayoti mohiyati va uni mazmunli o'tkazish borasidagi nasihatlar va va'zlar to'plami.

7. **Ruboiylar** – Bahouddin Naqshband tomonidan turli so'fiyona mavzularda aytilgan ruboiylar bo'lib, turli asarlar tarkibidan joy olgan.

Xojagon tariqatini isloh qilish va takomillashtirish orqali uni keng yoyishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Xoja Bahouddin Naqshband birinchi navbatda ushbu tariqat asoschisi Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy tomonidan joriy etilgan, biroq xojagon silsilasining keyingi pirlari davrida zikri jahriy bilan almashtirilgan zikri xafiyini qaytadan joriy etadi. Shuningdek, u xilvat va samo' amaliyotiga barham berib, botiniy xilvat – zohirda xalq bilan, botinda Haq bilan bo'lismi targ'ib etadi, Yusuf Hamadoniy va Abdulxoliq G'ijduvoniy tomonidan ishlab chiqilgan sakkiz rashhaga uchta yangi rashha qo'shib, ularning sonini o'n bittaga yetkazadi. Xoja Bahouddin Naqshband ta'limotining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

**1. Shariat va sunnat.** Bahouddin Naqshband ta'limoti birinchi navbatda shariatga qattiq rioya qilish, Payg'ambar (s.a.v.) sunnatiga ergashish va har qanday bid'atdan saqlanishga asoslangan. Bahouddin

<sup>1</sup> qudsiy [arabcha [قدسی] – yuqori olamga (g'ayb olamiga) oid.

<sup>2</sup> vird [arabcha [ورد] – takror aytiluvchi (tinimsiz takrorlanib turuvchi) so'z (duo, zikr).

o'z tariqatini *urvat ul-vusqo* (mustahkam tutqich), ya'ni Payg'ambar (s.a.v.) shariatiga ergashish va sahabalar yo'lidan borishdan iborat ekanligini uqtirarkan, bu tariqatga shariatni mahkam tutish va Rasululloh sunnatlariga amal qilish orqali yetishish mumkinligini ma'lum qiladi.

**2. Sayru suluk.** Bahouddin Naqshband o'z ta'lomitida sayru sulukning qanday bosqichlardan iboratligi to'g'risida hech narsa demagan bo'lsa-da, uning turli o'rnlarda bildirgan fikrlaridan quyidagi kartinani hosil qilish mumkin:

**Irodat.** Bahouddin Naqshband nazarida *irodat* – solikning biror murshidga murid tushishi *taslim* (o'zini topshirish) va *tarki ixtiyor* (o'z ixtiyoridan voz kechish) bilan birga kechadigan jarayon bo'lib, bunda murid «irodat irodatda irodatdan voz kechishdir», qoidasiga ko'ra o'z irodatini murshidi irodatiga bo'ysundiradi. Murid sulukda murshidga tamomila bo'ysunishi, uning chizgan chizig'idan chiqmasligi lozim [Абул Муҳсин 1993, 77].

**Sayru suluk bosqichlari.** Alouddin Attorning ma'lum qilishicha, Bahouddin Naqshband huzurida muridlar *muroqabat*<sup>1</sup> – *adam* (yo'qlik) – *fano* (foniy bo'lisch) ketma-ketligidagi bosqichlarni bosib o'tgach, o'zlaridan foni va Haqqa boqiy bo'lardilar [Абул Муҳсин 1993, 63]. Bahouddin Naqshband nazdida so'fiylar pastdan yuqoriga qarab boradigan uch tabaqaga bo'linadilar yoxud pastdan yuqoriga qarab boradigan quyidagi uch darajaga erishib boradilar: 1) muqallidlar (ergashuvchilar); 2) komillar; 3) mukammallar. Bunda muqallid eshitganiga amal qiladi, komil o'z vujudidan chiqib ketolmaydi, mukammal komilni tarbiyalash darajasida bo'ladi va komil mukammalning tarbiyasisiz mukammal bo'la olmaydi [Абул Муҳсин 1993, 77].

**Sayru sulukdan maqsad.** Bahouddin Naqshband sayru sulukdan maqsadni *ma'rifati ijmoliy* – xudoning zoti va sifatlari to'g'risidagi qisqacha va umumiyl bilimni *ma'rifati tafsiliy* – xudoning zoti va sifatlari to'g'risidagi batafsil va keng bilimga aylantirishdan iborat deb biladi [Абул Муҳсин 1993, 85]. Boshqacha so'z bilan aytganda, irodat bilan boshlanib, muayyan bosqichlarini bosib o'tish orqali amalga oshiriladigan sulukdan ko'zda tutiladigan maqsad tom ma'nodagi *ma'rifatdir*. Ma'rifat maqomiga yetgan so'fiy esa *orif* deb ataladi. Zero orif deb xudoga yetishish yo'lida xudoni, uning

---

<sup>1</sup> **muroqabat** [arabcha مراقبة qarab turish, qo'riqlash] – *tasavvufda*: solikda xudoning barcha holatlarda ham uning ko'nglidagilarni bilishi va ichki sirlaridan xabardor bo'lishiga bo'lgan qat'iy ishonchi hamda shu tufayli xudoni eslashga xalal beradigan noma'qul narsalarni o'ylashdan saqlanishi ko'rinishida yuz beradigan holat.

ismlari va sifatlarini bilish, ya'ni xudo va uning barcha xususiyatlari to'g'risida bilim hosil qilish bosqichiga yetgan so'fiyga aytildi. Bahouddin Naqshband sulukdagi pirovard maqsadiga yetgan solikni quyidagicha ta'riflaydi:

*Solik o'zining yetuklik darajasiga yetganidan keyin unda ko'ngil va til o'rtasida farq qolmaydi, ya'ni uning zohirdagi amallari botinidagi amallariga to'siq bo'lolmaydi. Shunda unga odamlarni Haq subhonahu va taologa chorlashga ruxsat etiladi. Solikning yetuklik darajasi deb esa shunga aytildiği, bunda u fano holatiga tushgan va jazba maqomi bo'lmish sayr filloh (Allohda sayr qilish) darajasiga yetgan bo'ladi. U ilohiy jazbalar yuz beradigan joyga aylanganidan keyin botinidagi jazba sifati bilan boshqalarni tasarruf eta oladi. Chunki uning bu tasarrufi aslida Haq subhonahu va taolo tasarrufidir* [Абул Мұхсин 1993, 88-89].

**Sayru suluk hosilalari.** Bahouddin Naqshband nazdida sayru suluk hosilalaridan bo'lmish oriflikning asosiy belgilaridan biri shundan iboratki, *orif* oriflik darajasiga yetmagan kishilardan farqli ravishda quyidagi uch holatga tusha oladi: *muroqabat, mushohadat* va *musohabat*. Uning nazdida muroqabat – butun o'yayol va diqqat-e'tiborni birligina xudoga qaratish orqali undan boshqa narsalarni unutish, mushohadat – ko'ngil ko'zi bilan g'ayb olamiga tegishli narsalarni ko'rish, musohabat – umrining o'tgan har bir lahzasini sarhisob qilishdan iborat [Абул Мұхсин 1993, 87-88].

Bahouddin Naqshband sayru suluk hosilalaridan yana biri – valiylikka alohida e'tibor beradi. Uning aytishicha *valiy* – g'aybdan xabardor bo'lgan va karomatlar ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan kishi o'zining bu xislatlaridan mag'rurlanib qolmasligi uchun ularga umuman e'tibor bermasligi, balki ko'proq bandalikka berilmog'i lozim [Абул Мұхсин 1993, 76]. Bahouddin Naqshband nazarida valiy boshqa odamlarni tasarruf eta oladigan kishi bo'lib, u Payg'ambar (s.a.v.) shariatiga qanchalik qattiq bog'langan bo'lsa, uning valiyligi shunchalik kuchli namoyon bo'ladi. Bahouddin Naqshband valiylar karomatlarining faqatgina kerakli o'rnlarda sodir etilishi lozimligini ta'kidlab: «Shayxning karomati muridning ishonchini oshirish uchungina namoyon etiladi», deydi [Абул Мұхсин 1993, 91].

**3. Zikr.** Zikr butun xojagon tariqatida bo'lgani kabi Bahouddin Naqshband ta'limotida ham markaziy o'rinni egallaydi. Uning nazdida zikrning mohiyati *g'aflat* (xudoni eslamay qo'yanlik) maydonidan *mushohadat* (xudoni ko'ngil ko'zi bilan ko'rish) maydoniga o'tishdir [Абул Мұхсин 1993, 90]. Bahouddin zikr talqini, ya'ni zikrga tushish qoidasini Xoja Muhammad Bobo Samosiydan o'rganganligini aytgan

[Абул Муҳсин 1993, 84].

Bahouddin Naqshband xojagon silsilasining uchinchi piri Xoja Mahmud Anjirfag'naviy davridan to mazkur silsilaning oltinchi piri Sayyid Amir Kulol davrigacha qo'llanilgan *zikri jahriy* [Абул Муҳсин 1993, 54] amaliyotiga barham berib, boshlab Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy tomonidan qo'llanilgan *zikri xafiyi* qaytadan joriy etdi. Manbalarda keltirilishicha, garchi Sayyid Amir Kulolning o'zi *zikri jahriy*ni qo'llagan bo'lса-da, «Bahouddinning har bir ishi xudonning hikmati yuzasidandir», deya u tomonidan *zikri xafiyi*ning qo'llanishiga qarshilik qilmagan [Абул Муҳсин 1993, 54; Koshifiy (a) 1977, 97-98]. Bahouddin Naqshbandning e'tiqodicha, *zikri xafiyi* kishining o'z siridan<sup>1</sup> ogoh bo'lishiga yordam beradi [Абул Муҳсин 1993, 78].

**4. Rashhalar.** Yuqorida aytib o'tilganidek, xojagon-naqshbandiya ta'limotining eng muhim asoslaridan bo'lmish «rashhalar» («tomchilar») deb ataluvchi o'n bir qoidadan ilk to'rttasi – *hush dar dam, nazar bar qadam, safar dar vatan va xilvat dar anjuman* Xoja Yusuf Hamadoniy [G'ijduvoniy 2003, 12], yana to'rt rashha – *yod-kard, bozgasht, nigohdosht* va *yoddosht* rashhalari Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniy tomonidan ishlab chiqilgan [Koshifiy (a) 1977, 38], biroq aynan G'ijduvoniy ushbu sakkiz rashhani to'laqonli konsepsiyalarga aylantirgan edi. Abdulxoliq G'ijduvoniy ta'limotini asl holida tiklab, uni yanada takomillashtirish yo'lidan borgan Bahouddin Naqshband ushbu sakkiz rashhaga yana uch rashha – *vuqufi adadiy* (sanoqdagi voqiflik), *vuqufi zamoniy* (vaqttagi voqiflik) va *vuqufi qalbiy* (qalbdagi voqiflik) rashhalarini qo'shib, ularning umumiy sonini o'n bittaga yetkazdi. Biroq Bahouddinning o'zining ta'kidlashicha, ushbu rashhalar, hech bo'limganda *vuqufi adadiy* qoidasi Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniydan qolgan bo'lib, unga buni Xoja Yusuf Hamadoniy o'rgatgan [Абул Муҳсин 1993, 84]. Bahouddin Naqshbandning fikricha, *vuqufi adadiy* laduniy ilmni o'rganishga kirishish, *vuqufi zamoniy* o'z holidan doimo xabardor bo'lib turish, *vuqufi qalbiy* esa jazba ta'sirini o'zida his etish va bu ta'sirning qalbdan o'rin olishi uchundir [Абул

---

<sup>1</sup> **sir** [arabcha سر sir] – *tasavvufda*: bandaning u va xudo o'rtasida mavjud bo'lgan, u va xudodan boshqa hech kimga ma'lum bo'limgan yashirin holati. Ba'zilar sirni qalbda, boshqa ba'zilar qalbdan yuqorida va ruhdan pastda, yana boshqa ba'zilar esa qalb va ruhdan yuqorida deb biladilar. Tasavvuf ahlining nazdida til qalbning, aql esa ruhning tarjemoni bo'lib, til bayon qila olmasdan qalbda qolib ketgan va aql idrok qila olmasdan ruhda qolib ketgan narsalar qalb va ruh siri deb ataladi. Tasavvufda sir bandaning xudoni tanish, xudoni sevish, xudoni izlash va xudoni ko'rish joyi sifatida tavsiflanadi. Ya'ni banda sirda xudoni taniydi, sevadi, izlaydi va ko'radi.

Мұхсин 1993, 84-86].

Bahouddin Naqshband, shuning bilan birgalikda, o'zidan oldin joriy etilgan rashhalarga katta ahamiyat bergen. U, jumladan, o'ziga-cha bo'lган so'fiylik ta'limotlarida mavjud bo'lган xilvat amaliyotini rad etarkan, *safar dar vatan va xilvat dar anjuman* rashhalarini o'z tariqati asoslarini tashkil etuvchi qoidalar sifatida belgilaydi [Абул Мұхсин 1993, 77; Jomiy 2003, 391; Navoiy 2001, 27]. Zero, zohiriy tarkidunyochilik va go'shanishinlikka qarshi kurashgan, o'z mehnati bilan kun ko'rishni targ'ib etgan Bahouddin Naqshband nazdida *safar dar vatan* so'fiyning tafakkur vositasida o'zining ichki olamiga – ruhiyat olamiga safarini, *xilvat dar anjuman* esa jisman odamlar orasida, qalban esa xudo bilan bo'lishni nazarda tutadi. Bahouddin Naqshband ta'limoti shu orqali solikning, bir tomondan tarkidunyochilikka va go'shanishinlikka berilmasdan, odamlar orasida bo'lib, ular bilan faol munosabatda bo'lishi va kasb-kor bilan shug'ullanishi, ikkinchi tomondan, bir lahma bo'lsa-da xudoni esdan chiqarmasligi, o'y-xayoli va diqqat-e'tibori xudoda bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi.

**5. Ijtimoiy faol so'fiylik.** Xoja Bahouddin Naqshband tarkidunyochilik va go'shanishinlikka qarshi chiqqan Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniy izidan borib, o'z izdoshlarini xilvatdan voz kechib, suhbat yo'lini tanlashga chorlarkan: «Bizning yo'limiz suhbat [yo'li]dir. [Zero] xilvat shuhrat keltiradi, shuhrat esa ofat. Yaxshilik ko'pchilik xalq ichra hosil bo'ladi, ko'pchilik xalq esa suhbat natijasida shakllanadi» [Абул Мұхсин 1993, 77; Anis at-tolibin 1992, 142; Jomiy 2003, 392], deydi. Shuningdek, u G'ijduvoniy kabi so'fiyning bosh-qalar hisobidan yashamasdan, o'z mehnati bilan kun ko'rishi lozimligini ta'kidlaydi. Jumladan, Xoja Bahouddin Naqshband so'fiy bo'lish uchun, albatta, kasb-kordan voz kechib, uzlatga chekinish shart emasligini uqtirib, o'z izdoshlarini jo'shqin iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga chorlash maqsadida *dast ba kor-u dil ba yor* (qo'ling ishda, ko'ngling esa xudoda bo'lsin) qoidasini o'rtaga tashlaydi [Koshifiy (b) 1977, 457].

## Adabiyotlar

Абулқосим Мұхаммад бин Масъуд Бухорий. *ар-Рисолат ал-Баҳоия*.  
Қўллўзма. Туркия, Қайсария шаҳри, Рашид Афанди номидаги кутубхона. инв. №1110.

Абул Мұхсин Мұхаммад Боқир ибн Мұхаммад Али. 1993. *Баҳоуддин Балогардон* (Макомоти Ҳожа Баҳоуддин Нақшбанд). Ташрир ҳайъати: А. Рустам ва бошқ.; Форсийдан таржима, сўзбоши ва луғат муаллифи Маҳмудхон Маҳдум Ҳасанхон Маҳдум ўғли.

Тошкент: Ёзувчи.

Азгуфтори Хожа Абдулхолиқ Фиждувоний (асар бобларидан парчалар).

2003. Форс тилидан Маҳмуд Ҳасаний ва Г. Музaffer қизи таржимаси. Хожа Абдулхолиқ Фиждувоний, 112-121. Сўзбоши, таржима, луғат ва изоҳлар муаллифи: Маҳмуд Ҳасаний. Тошкент: Ўзбекистон.

Алишер Навоий. 2001. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. Йигирма томлик.

Ўн еттинчи том. Тошкент: Фан.

Хожа Абдулхолиқ Фиждувоний. 2003. Maқомоти Юсуф Ҳамадоний.

Таржимон, нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифлари: Сайфиддин Сайфуллоҳ, Нодирхон Ҳасан; Масъул муҳаррир: Иброҳим Ҳаққул. Тошкент: Янги аср авлоди.

Хожа Абдулхолиқ Фиждувоний. 2003. Одоби тариқат. Форс тилидан

Маҳмуд Ҳасаний ва Г. Музaffer қизи таржимаси. Хожа Абдулхолиқ Фиждувоний, 97-101. Сўзбоши, таржима, луғат ва изоҳлар муаллифи: Маҳмуд Ҳасаний. Тошкент: Ўзбекистон.

турاب بخارى، سيد محمد ناصرالدین. تحفة الزايرین. چاپ سنگي. بخارا،

1910.

جامى، نورالدین عبدالرحمن، نفحات الانس / با مقدمه و تصحیح: محمود عابدی، تهران، اطلاعات، چاپ چهارم، ۲۸۳۱. ۴۱۲۱ ص.

خواجہ حاجی محمد فضل اللہ. عمدة المقامات / به اهتمام حسین حلمی ایشیق. – استانبول: مکتبة الحقيقة، ۵۳۴۱ ق - ۱۴۰۲ م.

سلطان محمد داراشکوه. سفينة الاولىاء. چاپ سنگي. – لکھنؤ: مطبع منشی نول کشور، 1862.

صلاح بن مبارک بخارى. انیس الطالبین و عده السالکین / به تصحیح و مقدمة خلیل ابراهیم صاری اوغلی؛ به کوشش توفیق صحبانی. – تهران: کیهان، 1992.

لاھوری، غلام سرور. خزینۃ الاصفیاء. ج 1. کانپور، ۱۳۲۱ - ۲۴۵ ص.

محمد طالب بن تاج الدین حسن خواجہ الحسینی الصدقی. مطلب الطالبین / فرهنگستان علوم جمهوری ازبکستان، انسٹیتوی شرق شناسی ابو ریحان بیرونی؛ تصحیح غلام کرمی و ایرکین میرکاملوف؛ زیر نظر حکیم تورایف. – تاشکند: ماوراءالنهر، ۲۱۰۲ - ۶۷۳ ص.

محمد معصوم نایب الصدر شیرازی. طرائق الحقائق / با تصحیح محمد محجوب/ ج ۱. تهران: کتابخانه سنایی، ۸۱۳۱ - ۲۷۷ ص.

مولانا فخرالدین علی بن حسین واعذ کاشفی. رشحات عین الحیات / با مقدمه و تصحیحات و حواشی و تعلیقات دکتر علی اصغر معینیان. در ۲ جلد. جلد اول. – تهران: بنیاد نیکوکاری نورانی، ۶۳۵۲ - ۱۶۳ ص.

مولانا فخرالدین علی بن حسین واعذ کاشفی. رشحات عین الحیات / با مقدمه و تصحیحات و حواشی و تعلیقات دکتر علی اصغر معینیان. در ۲ جلد. جلد دوم. – تهران: بنیاد نیکوکاری نورانی، ۶۳۵۲ - ۴۸۷ ص.

Девин ДиУис. 2001. *Маша'их-и турк и Хаджаган: переосмысление связей между суфийскими традициями Йасавийя и Накшбандийя*. Перевод с английского языка: Е. Березиной. Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фрица Майера (1912—1998). Сост. и отв. редактор А. А. Хисматуллин. СПб.: Филологический факультет СПбГУ. 394 с. 211-243.

Кныш А.Д. 2004. *Мусульманский мистицизм. Краткая история* / Пер. с англ. М.Г.Романов. СПб.: Изд-во: ДИЛЯ.

Necdet Tosun, 2007. *Bahâeddin Nakşbend: Hayatı, Görüşleri, Tarikati*, İstanbul: İnsan Yayınları, 3. baskı.

زرین کوب، عبدالحسین. دنباله جستجو در تصوف ایران / چاپ هفتم. – تهران: امیر کبیر، ۷۸۳۱ – ۲۱۴ ص.

## Hoja Bahauddin Nakshbandi, his Life, Activities and Views: Return to Gijduvani and Improvemen of Khojagon-Nakshbandiya's Doctrine

Komiljon Rahimov<sup>1</sup>

### Abstract

Khoja Bahauddin Naqshband (718 / 1318-791 / 1389) perfected the sect founded by Khoja Abdulkhalil Gijduvani (ca. 496 / 1103-575 / 1179) in the 12th century and made it one of the most influential sects. Hoja Bahauddin Naqshband reintroduced the dhikr secret, which was introduced by Gijduvani but repealed by the later pirs who approved the dhikr jahri, three new rashas (wuqufi zamani, wuqufi adadiy, added the heart) and increased their number to eleven. While denying secularism and bigotry, Bahauddin Naqshband advocated active communication with people and professionalism, while at the same time not forgetting God for a moment.

This article seeks to provide a more accurate account of the life, activities, and teachings of Hoja Bahauddin Naqshband, based on historical

<sup>1</sup> Komiljon R. Rahimov – Doctor of Philosophy in History (PhD), Senior Researcher, Oriental Studies of the name Abu Rayhan Beruni at the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.

E-mail: kom\_rah@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-0656-0546

For citation: Rahimov, K. R. 2021. "Hoja Bahauddin Nakshbandi, his Life, Activities and Views: Return to Gijduvani and Improvemen of Khojagon-Nakshbandiya's Doctrine". *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 65–84.

sources and research, as well as drawing detailed conclusions in this regard.

**Key words:** *Khoja Bahauddin Naqshband, mysticism, Khojagan-Naqshbandi sect, Khojagan-Naqshbandi doctrine, seventh pir, dhikr khafi, dhikr jahri, rashhas, secularism, profession, socially active Sufism.*

## References

- Abulqosim Muhammad bin Masud Buhorij. *ar-Risolat al-Bahoija*. Quljozma. Turkija, Qajsarija shahri, Rashid Afandi nomidagi kutubhona. inv. №1110.
- Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. 1993. *Bahouddin Balogardon* (Maqomoti Hozha Bahouddin Naqshband). Tahrir hajati: A. Rustam va boshq.; Forsijdan tarzhima, suzboshi va lugat muallifi Mahmudhon Mahdum Hasanhon Mahdum ugli. Toshkent: Jozuvchi.
- Az guftori Hozha Abdulholiq Gizhduvonij (asar boblaridan parchalar). 2003. Fors tilidan Mahmud Hasanij va G. Muzaffar qizi tarzhimasi. Hozha Abdulholiq Gizhduvonij, 112-121. Suzboshi, tarzhima, lugat va izohlar muallifi: Mahmud Hasanij. Toshkent: Uzbekiston.
- Alisher Navoiy. 2001. Nasojim ul-muhabbat. MAT. Jigirma tomlik. Un ettinchchi tom. Toshkent: Fan.
- Hozha Abdulholiq Gizhduvonij. 2003. *Maqomoti Jusuf Hamadonij*. Tarzhimon, nashrga tajjorlovchi va suzboshi mualliflari: Saifiddin Sajfulloh, Nodirhon Hasan; Masul muharrir: Ibrohim Haqqul. Toshkent: Jangi asr avlod.
- Hozha Abdulholiq Gizhduvonij. 2003. *Odob tariqat*. Fors tilidan Mahmud Hasanij va G. Muzaffar qizi tarzhimasi. Hozha Abdulholiq Gizhduvonij, 97-101. Suzboshi, tarzhima, lugat va izohlar muallifi: Mahmud Hasanij. Toshkent: Uzbekiston.
- Tura Buhorij, Sajjid Muhammad Nosiriddin. 1910. *Tuhfat az-zojirin*. Toshbosma nashr. Buhoro.
- Zhomij, Nuriddin Abdurrahmon ibn Ahmad. 2003. *Nafahot ul-uns min hazarot ul-quds*. Tahrir va suzboshi muallifi Mahmud Obidij. Turtinchi nashr. Tehron: Jetteloot.
- Hozha Hozhi Muhammad Fazlulloh. 2014. *Umdat ul-maqomot*. Husajn Hilmij Ishiq tomonidan nashrga tajjorlangan. Istanbul: Maktabat ul-haqiqat.
- Sulton Muhammad Doroshukuh. 1862. *Safinat ul-avlio*. Toshbosma nashr. Lakhnav: Munshij Naval Kishur matbaasi.
- Saloh bin Muborak Buhorij. 1992. *Anis at-tolibin va uddat as-solikin*. Tahrir va suzboshi muallifi: Halil Ibrohim Sorij ugli; Tavfiq Subhonij tomonidan nashrga tajjorlangan. Tehron: Kajhon.
- Lohurij, Gulom Sarvar. 1894. *Hazinat ul-asfijo*. 1-zhild. Konpur.
- Muhammad Tolib ibn Tozhiddin Hasanhozha Husajnij Siddiqij. 2012. *Matlab ut-tolibin*. UzR FA Abu Rajhon Berunij nomidagi Sharqshunoslik instituti. Nashrga tajjorlovchilar: Gulom Karimij, Erkin Mirkomilov;

- Masul muharrir: Halim Turaev. Toshkent: Movarounnahr.
- Muhammad Masum Nojib us-sadr Sherozij. 1939. *Tarojiq ul-haqoqijq*. Muhammad Zhafar Mahzhub tahriri ostida. 2-zhild. Tehron: Sanoij kurtubhonasi nashrijoti.
- Mavlono Fahriddin Ali bin Husajn Voiz Koshifij (a). 1977. *Rashahot ajn al-hajot*. Muqaddima, taxrir, izohlar va ilovalar muallifi doktor Ali Asgar Mainijon. 2 zhildlik. 1-zhild. Tehron: Nuronij.
- Mavlono Fahriddin Ali bin Husajn Voiz Koshifij (b). 1977. *Rashahot ajn al-hajot*. Muqaddima, tahrir, izohlar va ilovalar muallifi doktor Ali Asgar Mainijon. 2 zhildlik. 2-zhild. Tehron: Nuronij.
- Devin DiUis. 2001. *Masha'ih-i turk i Hvadzhagan: pereosmyslenie svjazej mezhdu sufiskimi tradicijami Jasavija i Nakshbandija*. Perevod s anglickogo jazyka: E. Berezinoj. Sufizm v Central'noj Azii (zarubezhnye issledovanija): Sb. st. pamjati Frica Majera (1912—1998). Sost. i otv. redaktor A. A. Hismatullin. SPb.: Filologicheskij fakul'tet SPb-GU. 394 s. 211-243.
- Knysh A.D. 2004. *Musul'manskij misticizm*. Kratkaja istorija. Per. s angl. M.G.Romanov. SPb.: Izd-vo: DILJa.
- Necdet Tosun, 2007. *Bahâeddin Nakşbend*: Hayati, Görüşleri, Tarikati, İstanbul: İnsan Yayınları, 3. baskı.
- Zarrinkub, Abdulhusajn. 2008. *Jeron tasavvufi tugrisida izlanishning davomi*. Ettinchi nashr. Tehron: Amiri Kabir, 138/ 7.

## **MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI**

O'zbekiston: til va madaniyat (O'zTM) – zamonaviy O'zbekiston (sobiq Turkiston) bilan bog'liq bevosita Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtiradigan til, tarix, san'at, etnografiya, madaniyat va ijtimoiy fanlar sohalarini qamrab olgan ilmiy jurnaldir. O'zTM munozarali, zamonaviy, innovatsion, konseptual jihatdan qiziqarli, original mavzudagi ilmiy tadqiqotlarni nashr qiladi. Jurnal lingvistika, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, din, falsafa, ilohiyot, fan, ta'lif, metodika, sotsiologiya, psixologiya, tarix, madaniyat, san'at, etnologiya, etnografiya, antropologiyaga oid ilmiy yo'nalishdagi maqolalar va taqrizlar hamda konferensiya hisobotlarini qabul qiladi.

### **I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar**

Qo'lyozmalar o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo'llash mumkin.

Barcha qo'lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

O'zbek va ingliz tillarida 100–150 so'zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lмаган kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

### **II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish**

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yodqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo'limlari sarlavhasi – to'q bo'yodqda, 14 hajm.

### **III. Maqolada tarjimalardan foydalanish**

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki"

shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingen tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingen manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

#### **IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi**

Manbadan olingen ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida ( ) satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

#### **V. Havola va izohlar berish**

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsdasi [ ] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

#### **VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyası**

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar bibliografiyada o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

#### **VII.Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyası**

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

#### **VIII.1. Kitoblar uchun**

##### **Bibliografiyada:**

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

##### **Matnda kitobga havola:**

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalilanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anijon, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

**Matnda kitobga havola:**

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

**Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi.** Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

**Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

**Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

**Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:**

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalilanigan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

**Elektron kitobni bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalilanigan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

**Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

**Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

**Matnda elektron kitobga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

**VIII.2. Jurnal maqolasi uchun**

**Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

**Matnda jurnal maqolasiga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

**Elektron jurnal uchun:**

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

**Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

**Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

### **VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun**

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytildanidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro’yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo’yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlaysa maqolaga havola berilayotgan bo’lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko’rsatilishi kerak.

#### **Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?” *O’zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

#### **Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:**

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O’zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

#### **Matnda maqolaga havola:**

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so’ngida foydalanilgan adabiyotlar o’zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro’yxati ikki qismdan iborat bo’lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko’rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o’zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

#### **Adabiyotlar**

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

#### **Adabiyotlar**

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo’llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle.com/> havolasiidan ko’rib olishingiz mumkin.

## **GUIDELINES FOR CONTRIBUTORS**

Uzbekistan: language and culture is an academic journal, publishing research in linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies. We aim to publish cutting edge, innovative, conceptually interesting, original case studies and new research, which shape and lead debates in multifaceted studies. We do not publish economic analyses or policy papers. Any opinions and views expressed in publications are the opinions and views of the authors, and the publishers are not responsible for the views/ reviews of the contributors.

The journal is published four times a year. The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcomed. In addition to research articles, the journal welcomes book reviews, literature overviews, conference reports and research project announcements.

### **1. General**

#### - Submission Guideline

1. Manuscripts may be submitted at any time during the year. However, if the author wishes to have his/her manuscript published in a certain issue of the journal, the submission should be made at least five months in advance of the proposed publication date.
- 2) Manuscripts should be submitted by email (uzlangcult@gmail.com) as an attachment in MS Word document (.doc) format and use MS Word Source.
- 3) All manuscripts should be submitted with a cover page including an email address, a mailing address and a short introduction about the author(s) /contributor(s)'.

### **2. Manuscript format**

- 1) The main texts should be written in Times New Roman font, 12 point, and single-spaced in 44 pagination with 1-inch margins.
- 2) Submissions must follow the author-date system of *The Chicago Manual of Style*, 16<sup>th</sup> Edition.
- 3) Quotations are given in brackets in the text.
- 4) A research article should normally be no more than 9,000 words in length, including the following contents:
  - an abstract of 150-200 words (in English, Russian, and Uzbek) and seven to ten keywords;
  - a list of references of no more than five (5) pages;
  - tables and figures, if any.
- 5) A book review should generally be about 1,500 English words (or other languages) in length, and must include the heading and closing in the following format:
  - Heading: *Title of the Book*. By Author's Name(s). City of Publication: Publisher Name, Year. pp. Price, ISBN:, (hardcover/paperback).
  - Closing: Book reviewer's name, affiliation and postal address at the end.
- 6) Style Points Headings. Limit: Four levels.

- Level 1. Title Style (e.g. the first letter of each word upper case, except prepositions), Bold, and 14 point.
- Level 2. Title Style, Italics, 14 Point.
- Level 3. Modified “down” style (first letter upper case, or first letter of first two words if the first word is an article), Bold, and 12 point.
- Level 4. Modified down style, Bold, 11 point.

### **3. Style and Usage**

#### **1) Translation**

- Translated excerpts from classical texts or non-English sources should be annotated with clarification of its original/published language and translator. Likewise, “Author’s own” translations of quoted texts should be noted as such.
- The author is expected to provide an English translation of key terms in the work, rather than a translator without expertise in the subject.
- Excerpts or quoted texts from published translation will not be edited. However, UzLC editors may query or modify translations of key terms or texts provided by the author.
- Where necessary, short supplementary information such as dates, an item in its original characters, or the Romanized form of a non-English item, may be included.
- Names of foreign publishers, and titles of sources published in a foreign language should primarily appear in Romanized form without translation. However, if necessary, a translation may be added in brackets ([ ]).

#### **2) Names and Terms**

##### **- Place Names (foreign):**

Designation for division of areas should be either translated or hyphenated after the given area name.

Designation for geographical/structure names are not hyphenated, and appear without the equivalent English term.

Institutional names are considered proper nouns. Their names should appear following the preference of the individual institutions.

3) The descriptive designation of a period is usually lowercase, except for proper names or traditionally capitalized terms.

### **4. Quotation**

#### **1) Block Quotations:**

- A block quotation should start with double line spacing and an indentation from the left margin. From the second paragraph of the block quotation, additional paragraph indentation is needed.

Texts in block quotation should be written in Times New Roman 10 pts., and not be entirely italicized.

### **5. Others**

- 1) There is one space after sentence punctuation and not two.
- 2) The end parenthesis, closing quotation mark, and footnote numbers come after the sentence punctuation.
- 3) For parentheses within parentheses, use brackets ([ ]).

## **6. Basic Citation Format**

The following examples illustrate citations using the **author-date** system. Each example of a reference list entry is accompanied by an example of a corresponding parenthetical citation in the text. For more details and many more examples, see chapter 15 of *The Chicago Manual of Style*.

### **BOOK**

#### **Reference List (hanging indent):**

Pollan, Michael. 2006. *The Omnivore's Dilemma: A Natural History of How Eating Has Evolved*. New York: Penguin.

#### **In Text Cite:**

[Pollan 2006, 99–100]

#### **Reference List (hanging indent):**

Ward, Geoffrey C., and Ken Burns. 2007. *The War: An Intimate History, 1941–1945*. New York: Knopf.

#### **In Text Cite:**

[Ward and Burns 2007, 52]

For four or more authors, list all of the authors in the reference list; in the text, list only the first author, followed by et al. (“and others”):

[Barnes et al. 2010, 847]

#### **Reference List (hanging indent) book chapter:**

Kelly, John D. 2010. “Seeing Red: Mao Fetishism, Pax Americana, and the Moral Economy of War.” In *Anthropology and Global Counterinsurgency*, edited by John D. Kelly, Beatrice Jauregui, Sean T. Mitchell, and Jeremy Walton, 67–83. Chicago: University of Chicago Press.

#### **In Text Cite:**

[Kelly 2010, 77]

Chapter of an edited volume originally published elsewhere (as in primary sources):

#### **Reference List (hanging indent) book originally published elsewhere:**

Cicero, Quintus Tullius. 1986. “Handbook on Canvassing for the Consulship.” In *Rome: Late Republic and Principate*, edited by Walter Emil Kaegi Jr. and Peter White. Vol. 2 of *University of Chicago Readings in Western Civilization*, edited by John Boyer and Julius Kirshner, 33–46. Chicago: University of Chicago Press. Originally published in Evelyn S. Shuckburgh, trans., *The Letters of Cicero*, vol. 1 (London: George Bell & Sons, 1908).

#### **In Text Cite:**

[Cicero 1986, 35]

### **BOOK PUBLISHED ELECTRONICALLY**

If a book is available in more than one format, cite the version you consulted. For books consulted online, list a URL; include an access date only if one is required by your discipline. If no fixed page numbers are available, you can include a section title or a

chapter or other number.

**Reference List (hanging indent):**

Austen, Jane. 2007. *Pride and Prejudice: A Novel in Five Books*. New York: Penguin Classics. Kindle edition.

**In Text Cite:**

[Austen 2007, 101]

**Reference List (hanging indent):**

Kurland, Philip B., and Ralph Lerner, eds. 1987. *The Founders' Constitution*. Chicago: University of Chicago Press. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders>

**In Text Cite:**

[Kurland and Lerner, chap. 10, doc. 19]

**JOURNAL ARTICLE**

**Article in a print journal**

In the text, list the specific page numbers consulted, if any. In the reference list entry, list the page range for the whole article.

**Reference List (hanging indent):**

Weinstein, Joshua I. 2009. "The Market in Plato's Republic." *Classical Philology* 104:439–58.

**In text cite:**

[Weinstein 2009, 440]

**Article in an online journal**

Include a DOI if the journal lists one. A DOI is a permanent ID that, when appended to <http://dx.doi.org/> in the address bar of an Internet browser, will lead to the source. If no DOI is available, list a URL. Include an access date only if one is required by your discipline.

**Reference List (hanging indent):**

Kossinets, Gueorgi, and Duncan J. Watts. 2009. "Origins of Homophily in an Evolving Social Network." *American Journal of Sociology* 115:405–50. doi:10.1086/599247.

**In text cite:**

[Kossinets and Watts 2009, 411]

**Article in a newspaper or popular magazine**

Newspaper and magazine articles may be cited in running text ("As Sheryl Stolberg and Robert Pear noted in a New York Times article on February 27, 2010..."); they are commonly omitted from a reference list. The following examples show more formal versions of the citations. If you consulted the article online, include a URL; include an access date only if your discipline requires one. If no author is identified, begin the citation with the article title.

**Reference List (hanging indent):**

Mendelsohn, Daniel. 2010. "But Enough about Me." *New Yorker*, January 25.

**In text cite:**

[Mendelsohn 2010, 68]

**Reference List (hanging indent):**

Stolberg, Sheryl Gay, and Robert Pear. 2010. "Wary Centrists Posing Challenge in Health Care Vote." *New York Times*, February 27. <http://www.nytimes.com/2010/02/28/us/politics/28health.html>.

**In text cite:**

[Stolberg and Pear 2010, 12]

**WEBSITE**

A citation to website content can often be limited to a mention in the text ("As of July 19, 2008, the McDonald's Corporation listed on its website . . ."). If a more formal citation is desired, it may be cited as in the examples below. Because such content is subject to change, include an access date or, if available, a date that the site was last modified. In the absence of a date of publication, use the access date or last-modified date as the basis of the citation.

**Bibliography (hanging indent):**

Google. 2009. "Google Privacy Policy." Last modified March 11. <http://www.google.com/intl/en/privacypolicy.html>.

**In text cite:**

[Google 2009]

**Reference List (hanging indent):**

McDonald's Corporation. 2008. "McDonald's Happy Meal Toy Safety Facts." <http://www.mcdonalds.com/corp/about/factsheets.html>.

**In text cite:**

[McDonald's 2008]

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrdan O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

**Manzil:** Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos  
Hojib ko'chasi 103-uy.  
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.  
Website: [www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)  
E-mail: [uzlangcult@gmail.com](mailto:uzlangcult@gmail.com)

Bosishga 30.06.2021-yilda ruxsat etildi.  
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasi.  
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida  
tayyorlandi va sahifalandi.  
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.  
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,  
58-a harbiy shaharcha.